

XALQARO INVESTITSIYA ARBITRAJIDA INVESTORNING NOQONUNIY XATTI-HARAKATLARINI PROTSESSUAL KVALIFIKATSIYA QILISH: YURISDIKSIYA, QABUL QILINUVCHANLIK (ADMISSIBILITY) VA ISHNING MOHIYATI (MERITS) O‘RTASIDAGI CHEGARALAR

Ergasheva Nargiza Bahridin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro arbitraj va nizolarni hal etish yo‘nalishi magistranti

ergashevanargiza2003@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20131799>

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqaro investitsiya arbitrajida investorning noqonuniy xatti-harakatlari (korrupsiya, firibgarlik va qonunchilikni aylanib o‘tish) protsessual jihatdan qanday malakalanishi muammosini tahlil qiladi. Tadqiqot yurisdiksiya, qabul qilinuvchanlik (admissibility) va ishning mohiyati (merits) o‘rtasidagi doktrinal va amaliy chegaralarni ko‘rib chiqadi. “Metal-Tech v. Uzbekistan”, “World Duty Free v. Kenya”, “Inceysa v. El Salvador” va “Fraport v.

Philippines” kabi yetakchi xalqaro arbitraj ishlari tahlili orqali tribunallarning o‘zaro ziddiyatli yondashuvlari hamda “toza qo‘llar” (clean hands) doktrinasining qo‘llanilish amaliyoti ochib beriladi. Xulosa o‘rnida, investitsiya kiritish bosqichidagi (pre-establishment) huquqbuzarliklarni yurisdiksiya doirasida, investitsiya kiritilgandan keyingi (post-establishment) huquqbuzarliklarni esa admissibility mexanizmi orqali hal etish qabul qiluvchi davlatlarning nizolardagi ustunligini kamaytirishga, shuningdek, arbitraj jarayonida mutanosib adolatni ta‘minlashga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro investitsiya arbitraji, yurisdiksiya, qabul qilinuvchanlik (admissibility), ishning mohiyati (merits), investorning noqonuniy xatti-harakati, korrupsiya, “toza qo‘llar” doktrinasi.

Abstract. This academic research analyzes the problem of the procedural qualification of investors' illegal conduct (corruption, fraud, and circumvention of law) in international investment arbitration. The study comprehensively examines the doctrinal and practical boundaries between jurisdiction, admissibility, and the merits of the case. Through the analysis of leading international arbitration cases such as “Metal-Tech v. Uzbekistan”, “World Duty Free v. Kenya”, “Inceysa v. El Salvador”, and “Fraport v. Philippines”, the inconsistent approaches of tribunals and the application of the “clean hands” doctrine are revealed. The thesis concludes that addressing pre-establishment illegality as a jurisdictional bar, and post-establishment illegality through the mechanism of admissibility, helps to mitigate the asymmetric advantage of host states and ensures proportional justice within the arbitration process.

Keywords: international investment arbitration, jurisdiction, admissibility, merits, investor's illegal conduct, corruption, clean hands doctrine, transnational public policy.

Аннотация. Данный академический статья анализирует проблему процессуальной квалификации незаконных действий инвестора (коррупция, мошенничество и обход закона) в международном инвестиционном арбитраже. В исследовании глубоко рассматриваются доктринальные и практические границы между юрисдикцией, приемлемостью (admissibility) и существом дела (merits). Через анализ ведущих международных арбитражных дел, таких как “Metal-Tech v. Uzbekistan”,

“World Duty Free v. Kenya”, “Inceysa v. El Salvador” и “Fraport v. Philippines”, раскрываются противоречивые подходы трибуналов и практика применения доктрины “чистых рук”. В заключении обосновывается, что рассмотрение правонарушений на стадии осуществления инвестиций (pre-establishment) в качестве препятствия для юрисдикции, а последующих (post-establishment) правонарушений – через механизм приемлемости, способствует снижению асимметричного преимущества принимающих государств и обеспечению пропорциональной справедливости в арбитражном процессе.

Ключевые слова: международный инвестиционный арбитраж, юрисдикция, приемлемость (admissibility), существо дела (merits), незаконные действия инвестора, коррупция, доктрина “чистых рук”, транснациональный публичный порядок.

Kirish. Xalqaro investitsiya huquqi tizimi xorijiy investorlarni qabul qiluvchi davlatlarning adolatsiz yoki noqonuniy xatti-harakatlaridan (masalan, ekspropriatsiya, adolatli va teng munosabatda bo‘lmaslik) himoya qilish maqsadida yaratilgan. Biroq, so‘nggi yillarda xalqaro investitsiya arbitraji (Investor-State Dispute Settlement – ISDS) amaliyotida mutlaqo yangi va murakkab tendensiya shakllandi: qabul qiluvchi davlatlar o‘zlarini himoya qilish uchun investorlarning qonunga xilof harakatlarini vaj qilib ko‘rsatishni boshladilar.¹ Davlatlar ko‘pincha investor o‘z sarmoyasini kiritish, ro‘yxatdan o‘tkazish yoki boshqarish jarayonida mahalliy qonunchilikni, xususan, korrupsiyaga qarshi kurashish, ekologiya, soliq yoki mehnat huquqi normalarini buzganligini da‘vo qiladilar. Natijada, arbitraj tribunallari oldida o‘ta jiddiy huquqiy muammo yuzaga keladi: agarda davlat xalqaro majburiyatini buzgan bo‘lsa-yu, ammo sarmoyadorning o‘zi ham noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshirgan bo‘lsa, nizo protsessual jihatdan qanday hal etilishi lozim?²

Ushbu masala shunchaki nazariy ahamiyatga ega bo‘libgina qolmay, balki amaliy va iqtisodiy jihatdan ham ma‘lum oqibatlariga ega. Hozirgi arbitraj amaliyotida investorning huquqbuzarligi uch xil protsessual bosqichda malakalanishi mumkin: yurisdiksiyaning yo‘qligi (lack of jurisdiction), da‘voning qabul qilinishi mumkin emasligi (inadmissibility) yoki da‘voni ishning mohiyati bo‘yicha (on the merits) rad etish.² Tribunallarning bu masaladagi yondashuvlari ishning xususiyatiga qarab turlichadir. Ayrim arbitraj sudlari (masalan, *Metal-Tech v. Uzbekistan* ishida) o‘z yurisdiksiyasini inkor etish orqali jarayonni darhol to‘xtatsa, boshqalari (*World Duty Free v. Kenya*) jarayonni to‘liq eshitib, uni ish mohiyati doirasida rad etgan. Shuningdek, tadqiqot yurisdiksiya, admissibility va merits tushunchalari o‘rtasidagi nazariy chegaralarni tahlil qilib, investitsiyani kiritish vaqtidagi (pre-establishment) va undan keyingi (post-establishment) huquqbuzarliklarni farqlash mexanizmlari ko‘rib chiqiladi.

Nazariy asoslar: Xalqaro arbitraj tribunallari investorlarning qonunga xilof xatti-harakatlarini baholashda va ularning huquqiy himoyasini inkor etishda bir qator fundamental xalqaro huquq doktrinalari va tamoyillariga tayanadilar. Ushbu tamoyillar nafaqat investitsiya shartnomalarining (BIT) to‘g‘ridan-to‘g‘ri matnida aks etadi, balki xalqaro huquqning umumiy normalari (customary international law) sifatida ham baholanadi.

1 Llamzon, A. P., *Corruption in International Investment Arbitration*, Oxford University Press, 2014, p. 55-58.

2 Kreindler, R., "Corruption in International Investment Arbitration: Jurisdiction and the Unclean Hands Doctrine," *Journal of International Arbitration*, Vol. 30(3), 2013, p. 309.

2 Wilske, S., & Raible, M., "The Distinction Between Jurisdiction and Admissibility in Investment Arbitration," *Kluwer Arbitration Blog*, 2019, p. 2.

Dastlab “Clean hands” doktrinasini ko‘rib chiqsak, doktrina xalqaro va milliy huquq tizimlarida keng e‘tirof etilgan tushuncha bo‘lib, u adolat tizimidan yordam so‘rab murojaat qilayotgan shaxsning o‘zi huquqqa xilof harakat qilib kelmagan bo‘lishi shartligini anglatadi.³ Xalqaro investitsiya arbitrajida ushbu doktrina davlatlar tomonidan xorijiy investorlarning da‘volarini rad etish uchun eng ko‘p ishlatiladigan vositadir. Garchi Xalqaro Sud (ICJ) o‘z qarorlarida “clean hands” doktrinasini umumiy xalqaro huquq normasi sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llashga ehtiyotkorlik bilan yondashgan bo‘lsa-da, investitsiya tribunallari uni shartnomaviy munosabatlarda insofililik va halollik tamoyilining uzviy qismi sifatida tatbiq etib kelishmoqda.⁴ Ushbu doktrina asosida, agar investor o‘z sarmoyasini korrupsiya, majburlash yoki o‘zga firibgarlik yo‘llari bilan qo‘lga kiritgan bo‘lsa, u xalqaro himoya va kompensatsiyadan voz kechishga majbur bo‘ladi.

Keyingi tamoyillardan biri bu ommaviy tartib tamoyili. Xalqaro arbitrajda transmilliy ommaviy tartib tushunchasi xalqaro iqtisodiy munosabatlarning fundamental axloqiy, ijtimoiy va huquqiy qadriyatlarini ifodalaydi. P.Laliv (Pierre

Lalive) kabi yetakchi huquqshunoslarning ta‘kidlashicha, transmilliy ommaviy tartib nafaqat milliy qonunchilikka, balki butun insoniyat sivilizatsiyasiga yot bo‘lgan harakatlarni (qullik, terrorizm, ommaviy korrupsiya) taqiqlaydi.⁵ Arbitraj tribunallari shartnoma azaldan korrupsiya evaziga tuzilganligini isbotlasa, transmilliy ommaviy tartib prinsipiga asoslanib, bunday shartnomani haqiqiy emas deb topish va uni himoya qilishdan bosh tortish yuzasidan o‘ziga xos *ex officio* (o‘z tashabbusi bilan) vakolatga egadirlar.⁶ Bu tamoyil ayniqsa poraxo‘rlik holatlarida juda qattiq qo‘llaniladi.

Bundan tashqari Insofililik (*Bona Fides*) va *Nemo auditur propriam turpitudinem allegans* kabi tamoyillar ham mavjud. Insofililik (*Good Faith / Bona Fides*) xalqaro huquqning tamal toshi hisoblanadi. 1969-yilda qabul qilingan Vena konvensiyasining (VCLT) 26-moddasiga muvofiq, har qanday harakatdagi xalqaro shartnoma ishtirokchilar uchun majburiydir va ular uni insofililik bilan bajarishlari shart.⁷ Investor-davlat munosabatlarida ham har ikki tomon insofil munosabatda bo‘lishi prezumpsiya qilinadi. Insofililik prinsipi va Rim huquqidan kelib chiqqan *nemo auditur propriam turpitudinem allegans* (hech kim o‘zining noqonuniy va qing‘ir harakatlarini ro‘kach qilib foyda talab qila olmaydi) qoidasi kelib chiqadi.⁹ Tribunallar mazkur doktrinadan foydalanib, hukumat amaldorlariga pora bergan yoki mahalliy qonunchilikni chetlab o‘tgan investorlarni huquqiy asosdan mahrum etishlari ham mumkin.

Huquqiy asoslar: Yurisdiksiya, Admissibility va Merits farqi. Investor huquqbuzarligini aniqlagandan so‘ng tribunal hal qilishi kerak bo‘lgan asosiy masala uning protsessual joylashuvidir. Yurisdiksiya, qabul qilinuvchanlik (*admissibility*) va ishning

3 Dumberry, P., "State of Confusion: The Doctrine of ‘Clean Hands’ in Investment Arbitration After the Yukos Award," *The Journal of World Investment & Trade*, Vol. 17(2), 2016, p. 231

4 Viñuales, J. E., "Investor Diligence in Investment Arbitration: Sources and Arguments," *ICSID Review*, Vol. 32(2), 2017, p. 346.

5 Lalive, P., "Transnational (or Truly International) Public Policy and International Arbitration," *Comparative Law Yearbook*, 1986, p. 270.

6 Hunter, M., & Silva, G., "Transnational Public Policy and its Application in Investment Arbitration," *The Journal of World Investment*, Vol. 4(3), 2003, p. 367.

7 Vena Konvensiyasi (The Vienna Convention on the Law of Treaties), BMT, 1969, 26-modda (Pacta sunt servanda).⁹ Cheng, B., *General Principles of Law as Applied by International Courts and Tribunals*, Cambridge University Press, 1953, p. 155.

mohiyati (merits) bir-biridan tubdan farq qiluvchi xususiyatlarga hamda oqibatlariga ega protsessual kategoriyalardir.

Yurisdiksiya. Yurisdiksiya tribunalning ko'rib chiqilayotgan muayyan nizoni hal qilish uchun umuman qonuniy vakolatga (huquqqa) ega yoki ega emasligini anglatuvchi eng dastlabki chegaradir.⁸ U taraflarning kelishuviga (consent) asoslanadi. Xalqaro investitsiya shartnomalarining (BIT) aksariyatida "in accordance with host state law" (qabul qiluvchi davlat qonunlariga muvofiq) sharti mavjud.⁹ Agarda sarmoya boshidanoq firibgarlik yoki korrupsiya vositasida yaratilgan bo'lsa, u BIT ta'rifi bo'yicha qonuniy investitsiya obyekti darajasiga ko'tarila olmaydi. Oqibatda, tribunal nizoni ko'rib chiqish vakolatiga (ratione materiae) ega bo'lmaydi. Yurisdiksiyaning bekor qilinishi ishni mutlaqo yopadi.

Qabul qilinuvchanlik (Admissibility). Jan Polsson kabi mutaxassislar yurisdiksiya va admissibility o'rtasida keskin farq borligini uzoq vaqtdan beri isbotlab kelishadi.¹⁰ Admissibility tribunal vakolatiga emas, balki da'voning (claim) o'ziga xos kamchiliklariga va ishning ayni shu vaqtda, shu shaklda ko'rib chiqilishi mumkinmi yoki yo'qmi degan savolga javob beradi. Agar tribunal yurisdiksiyaga ega bo'lsa ham, admissibility sababli ishni davom ettirmasligi mumkin. Xususan, agar investor investitsiyani kiritish bosqichida (pre-establishment) emas, balki obyekt ishga tushib, ancha vaqt ishlagandan keyin (post-establishment) ekologik litsenziyani uzaytirish uchun pora bergan bo'lsa, bu yurisdiksiyani yo'qqa chiqarmaydi, chunki investitsiya qonuniy yaratilib bo'lgan.¹¹ Lekin, "toza qo'llar" doktrinasi asosida ushbu noqonuniy da'voni qabul qilib bo'lmaydi deb baholash – admissibility instituti doirasiga kiradi.

Ishning mohiyati (Merits). Ishning mohiyati protsessning so'nggi va eng asosiy bosqichidir. Bu yerda tribunal investitsiya shartnomasi qoidalari (masalan, Fair and Equitable Treatment yoki Expropriation normalari) buzilganmi yoki yo'qmi ekanligini chuqur tahlil qiladi.¹⁴ Agar investorning noqonuniy harakati juda muhim yurisdiksiyaviy to'siq hisoblanmasa, bu harakat tomonlar o'rtasidagi majburiyatlarning buzilishi sifatida tahlil etiladi. Masalan, investor mahalliy soliqlarni to'lamagan bo'lsa, bu davlat tomonidan qo'llanilgan jazo choralari qonuniy deb topishga yoki investorga to'lanishi kerak bo'lgan kompensatsiya miqdorini sezilarli darajada kamaytirishga (contributory fault / mutanosib ayb) olib keladi.¹²

Yurisdiksiya, admissibility va merits tushunchalarining xalqaro arbitraj tribunalari tomonidan qanday qilib bir-biriga zid va farqli ravishda qo'llanilganini quyidagi to'rtta klassik arbitraj ishlari misolida chuqur tahlil qilish mumkin.

Metal-Tech Ltd. v. Republic of Uzbekistan (ICSID Case No. ARB/10/3)

8 Paulsson, J., "Jurisdiction and Admissibility," *Global Reflections on International Law, Commerce and Dispute Resolution*, ICC Publishing, 2005, p. 601.

9 Newcombe, A., & Paradell, L., *Law and Practice of Investment Treaties: Standards of Treatment*, Kluwer Law International, 2009, p. 121.

10 Veeder, V. V., "The Distinction Between Jurisdiction and Admissibility in International Arbitration," *Arbitration International*, Vol. 34(3), 2018, p. 331.

11 Douglas, Z., *The International Law of Investment Claims*, Cambridge University Press, 2009, p. 150-152. ¹⁴ McLachlan, C., Shore, L., & Weiniger, M., *International Investment Arbitration: Substantive Principles*, Oxford University Press, 2017, p. 195.

12 Muchlinski, P., Ortino, F., & Schreuer, C., *The Oxford Handbook of International Investment Law*, Oxford University Press, 2008, p. 545.

Ishning qisqacha bayoni: Isroilning “Metal-Tech Ltd.” kompaniyasi va O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida molibden mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilish maqsadida “Uzmetal” qo‘shma korxonasi tuzilgan. 2006-yilda

O‘zbekiston hukumati korxonaga faoliyatini to‘xtatib, uning aktivlarini bankrotlik tartibida tugatdi. Investor buning ortidan ICSID doirasida arbitraj jarayonini boshladi. O‘zbekiston o‘z himoyasi davomida Isroil kompaniyasi qo‘shma korxonaga tuzilish bo‘yicha huquqni qo‘lga kiritish uchun mahalliy mansabdor shaxslarga yashirin “konsalting” (maslahat xizmatlari) shartnomalari ko‘rinishida jami 4 million AQSH dollaridan ortiq mablag‘ni pora sifatida berganligini vaj qilib ko‘rsatdi.¹³

Tribunal Isroil va O‘zbekiston o‘rtasidagi Ikki tomonlama investitsiya shartnomasining (BIT) investitsiyalar tushunchasiga berilgan ta‘rifini o‘rgandi. BITda faqatgina “qabul qiluvchi davlat qonunlari va qoidalariga muvofiq amalga oshirilgan investitsiyalar” (implemented in accordance with laws and regulations of the host state) xalqaro himoya qilinishi belgilab qo‘yilgan edi. Tribunal faktik dalillarni tahlil qilar ekan, maslahatchilar hech qanday amaliy xizmat ko‘rsatmaganini, pullar bevosita yuqori lavozimli davlat amaldorlariga qarindoshligi bo‘lgan shaxslar hisobiga o‘tkazilganligini aniqladi. Bu o‘z-o‘zidan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida belgilangan korrupsiya moddalarini va xalqaro ommaviy tartib normalarini qo‘pol tarzda buzish edi.

Tribunal investorning noqonuniy xatti-harakatini bevosita **yurisdiksiyaning yo‘qligi** deb malakaladi. Oqibatda, O‘zbekistonning korrupsion harakatlarda qisman qatnashgan mansabdorlari bo‘lishiga qaramay, sarmoya boshidanoq davlat qonunchiligiga zid ravishda (pora evaziga) tashkil topgan deb topildi. Demak, u BIT doirasidagi investitsiya sanalmasligi belgilandi va tribunal O‘zbekiston harakatlarining mohiyatini o‘rganmasdanoq da‘voni rad etdi.

World Duty Free v. Republic of Kenya (ICSID Case No. Arb/00/7)

Ishning qisqacha bayoni: Da‘vogar “World Duty Free” kompaniyasi (va uning rahbari Ali Nasir) Nayrobi va Mombasa xalqaro aeroportlarida 10 yil muddatga boj olinmaydigan (duty-free) savdo majmualarini qurish va ekspluatatsiya qilish bo‘yicha eksklyuziv huquqni qo‘lga kiritgan. Ammo bu shartnomani yutish uchun investor Keniya sobiq prezidenti Daniel arap Moiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxsiy qarorgohida naqd 2 million AQSH dollari solingan “jigarrang portfel” (brown briefcase) taqdim etganini arbitrajda o‘zi tan oldi (investor buni Keniya an‘analariga ko‘ra o‘ziga xos “sovg‘a” yoxud shaxsiy badal sifatida ko‘rsatishga urindi). Keniya shartnomani buzgach, investor kompensatsiya talab qildi.¹⁴

Keniyaning asosiy mudofaasi davlat shartnomani tuzishda aldanganligi, uning rahbarlari pora evaziga xalq mulkini taqsimlagani, shuning uchun shartnoma *void ab initio* (boshidanoq haqiqiy emas) ekanligi edi. Tribunal korrupsiyani turli milliy huquq tizimlarida qanday talqin qilinishidan qat‘i nazar, transmilliy ommaviy tartibga va xalqaro insofililik qoidalariga o‘ta zid degan xulosaga keldi.

Garchi Metal-Tech ishida yurisdiksiya rad etilgan bo‘lsa-da, bu yerda jarayon o‘zgaruvchan yondashuvni taqdim etdi. Tribunal o‘z **yurisdiksiyasini tasdiqladi** va nizo predmeti bo‘yicha eshituvni o‘tkazdi. Biroq, huquqbuzarlik shartnomaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri

¹³ *Metal-Tech Ltd. v. Republic of Uzbekistan*, ICSID Case No. ARB/10/3, Award, October 4, 2013, paras. 109-112.

¹⁴ *World Duty Free Company Limited v. Republic of Kenya*, ICSID Case No. Arb/00/7, Award, October 4, 2006, paras. 130-136.

ajralmas qismi bo'lganligi bois, ishning **mohiyati (merits)** (va admissibility unsurlari aralash holda) doirasida da'vogarning harakatlarini yuridik jihatdan oqlab bo'lmaydi deb e'lon qildi va kompensatsiya talabini butunlay rad etdi. **Inceysa Vallisoletana S.L. v. Republic of El Salvador (ICSID Case No. ARB/03/26)**

Ishning qisqacha bayoni: Ispaniyaning Inceysa kompaniyasi El Salvador Respublikasida avtotransport vositalarini emissiya va texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha davlat tenderida qatnashib, g'olib bo'ldi. Shartnoma imzolanganach, faoliyat boshlandi, ammo davlat keyinchalik Inceysa tender davomida o'zining haqiqiy moliyaviy holati, xodimlari soni va tajribasiga doir soxta hujjatlar taqdim etganligini va shunday qilib davlatni ataylab aldaganligini aniqladi. Shu sababli shartnoma bekor bo'ldi. Inceysa arbitrajga murojaat qildi.¹⁵

Arbitraj tribunali Ispaniya-El Salvador BITidagi “investitsiyalar faqat qabul qiluvchi davlat qonunchiligi asosida amalga oshirilsa” degan shartga e'tiborini qaratdi. Tribunal bu yerda nafaqat El Salvador qonunlari buzilganini, balki Inceysa harakatlari xalqaro huquqning “toza qo'llar” va insofilik (bona fides) tamoyillariga ham qat'iyon zid ekanligini ta'kidladi. Davlat firibgarni himoya qilish majburiyatini hech qachon o'z zimmasiga olmaganligi isbotlandi.

Tribunal aynan **yurisdiksiya yo'qligi** xulosasiga keldi. Inceysaning sarmoyasi va shartnomasi yolg'on ustiga qurilganligi bois, u qonuniy “investitsiya” emas edi va shuning uchun Tribunal nizoni mohiyatan hal qilish uchun hech qanday protsessual vakolatga ega emas deb topdi. Ish dastlabki yurisdiksiya bosqichidayoq investorning mag'lubiyati bilan tugadi.

Yuqoridagi uchta keysni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, xalqaro investitsiya huquqida yagona, universal, qat'iy belgilangan amaliyot yo'q. Aksincha, huquqbuzarliklarni malakalash bo'yicha nomuvofiqlik va muammoli jihatlar mavjud.

Yurisdiksiyaviy inkor etish yondashuvining (Metal-Tech, Inceysa) eng katta kamchiligi – bu davlat uchun “bepul qochish chiptasi” (free pass) vazifasini o'tashidir. Investor qonunni bozishi yomon, albatta. Ammo masalan, *Metal-Tech* ishida porani O'zbekiston mansabdorlari olgan. Agar tribunal yurisdiksiyani rad etsa, ish mohiyati ko'rilmaydi, ya'ni O'zbekiston davlati qilingan investitsiyani to'liq o'zlashtirganligi (ekspropriatsiya), qolaversa korrupsiya sodir etgan mansabdorlari ham tegishli xalqaro bahosini olmasligi kabi adolatsiz holat vujudga keladi.¹⁶ Natijada investor barcha sarmoyasini yo'qotadi, pora olgan va shartnomani bajarmagan davlat esa de-fakto yutib chiqib, boyiydi (unjust enrichment).

Yana bir chuqur doktrinal tushunmovchilik qonunbuzarlikning qachon sodir etilishi bilan bog'liq. Barcha investitsiya shartnomalaridagi qonuniylik talablari odatda investitsiyani *kiritish* vaqtini (made in accordance with...) o'z ichiga oladi.¹⁷ Binobarin, agar investor 2000-yilda zavod qurib (tamoman qonuniy va porasiz), so'ngra 2005-yilda soliqdan qochish uchun hujjatlarni qalbakilashtirsa, bu **yurisdiksiya** masalasi bo'la olmaydi, chunki tribunalda 2000-yildagi qonuniy harakat bo'yicha vakolat allaqachon shakllangan. Ko'pgina tribunallar ushbu

15 *Inceysa Vallisoletana S.L. v. Republic of El Salvador*, ICSID Case No. ARB/03/26, Award, August 2, 2006, paras. 235-239.

16 Raouf, M. A., "How Should International Arbitrators Tackle Corruption Issues?," *ICSID Review*, Vol. 24(1), 2009, p. 116.

17 Heiskanen, V., "Unreasonable Expectations: The Decline of the 'Clean Hands' Doctrine," *ICSID Review*, Vol. 29(1), 2014, p. 130

nozik chegarani his etmay, har qanday qonunbuzarlikni yurisdiksiya deb e'lon qilib yuborishga moyil bo'lmoqdalar, bu esa xalqaro huquqning mantiqiga zid keladi.

Admissibility muammolari. Xalqaro huquq sohasidagi ko'plab ekspertlar (jumladan, Zakari Duglas (Zachary Douglas)) investorning investitsiya faoliyati davomidagi (post-establishment) yoki unchalik fundamental bo'lmagan xatolarini aynan **qabul qilinuvchanlik (admissibility)** predmeti sifatida e'tirof etish eng optimal yechim ekanligini taklif qiladilar.¹⁸ Bu yondashuv tribunalga “mening yurisdiksiyam bor, tomonlar o'rtasida nizo bor, lekin da'vogar insofsiz bo'lganligi sababli, uning murojaatini ayni damda qanoatlantirish adolatdan bo'lmaydi” degan xulosani berish imkonini yaratadi. Shuningdek, admissibility yondashuvi yurisdiksiyani bekor qilishdan ko'ra yumshoqroq bo'lib, kelgusida tribunal qarorining bekor qilinish xavfini keskin kamaytiradi.

Arbitraj xarajatlarini taqsimlash mexanizmi. Asimmetriyaga qarshi qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng kuchli zamonaviy tendensiya tribunalning xarajatlar va zararlarni proporsional taqsimlashidir (Contributory fault/Cost allocation). Hatto tribunal yurisdiksiyani rad etsa-da, davlatning o'z xodimlarining korrupsiyadagi aybini hisobga olib, davlatga arbitraj xarajatlarini (arbitration costs) qoplashni yuklashi adolatli bo'ladi. *Metal-Tech* ishida qisman shu yondashuv qo'llanilib, davlat g'olib bo'lsa-da, o'ziga tegishli arbitraj xarajatlarini o'zi to'lashi belgilandi.

Xalqaro arbitraj yurisprudensiyasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, amaliyotda shablonlashtirilgan yoki yagona yondashuv mavjud emas. Tribunallar masalaga aniq farqlangan ko'z bilan qarashi shart. Agar huquqbuzarlik investitsiya yaralishining eng muhim fundamenti bo'lsa (pora yoki asosiy litsenziyani qalbakilashtirish), yurisdiksiyani inkor etish to'g'ri. Biroq boshqa holatlarda, amaliyot asta-sekin admissibility yoxud ish mohiyati doirasida mutanosib aybni aniqlash orqali masalani hal etishga o'tishi kerak. Bu xalqaro arbitraj tizimi obro'sini saqlab qoladi va davlatlarni insofsizlikka undamaydi.

Xulosa. Ushbu maqolada xalqaro investitsiya arbitrajida investorning noqonuniy xatti-harakatlarini protsessual malakalash bo'yicha doktrinal, huquqiy va amaliy masalalarni kompleks tarzda ochib berishga harakat qilindi. Yuqorida keltirilgan dalillar va qonun-qoidalardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, yurisdiksiya, admissibility va merits o'rtasidagi farqlar shunchaki nazariy bahs yoxud “so'z o'yini” emas. Ular butun arbitraj jarayonining taqdirini, sarflanadigan millionlab dollar xarajatlarni, qarorning qat'iyligi va bekor bo'lish xavfini belgilab beruvchi eng muhim huquqiy mexanizmlardir.

Ikkinchidan, *Metal-Tech*, *Inceysa* va *Fraport* kabi amaliyotda yuz bergan klassik ishlarning tahlili shuni tasdiqlaydiki, sarmoya kiritish vaqtidagi korrupsiya yoki firibgarlik deyarli barcha holatlarda yurisdiksiyaning rad etilishiga olib keladi. Bunga investitsiya bitimlaridagi aniq-ravshan qonuniylik shartlari (“in accordance with law”) asos bo'ladi. *World Duty Free* ishida bo'lgani kabi ish mohiyatigacha yetib borish ko'proq xalqaro tijorat arbitraji qoidalariga xos yondashuvdir, ammo investitsiya arbitrajida bu o'z o'rnini borgan sari yurisdiksiyaviy e'tirozlarga bo'shatib bermoqda.

Uchinchidan, hozirgi tizimda tub e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan muammo – bu javobgar davlatning javobgarlikdan “ozod bo'lib” chiqib ketish xataridir. O'z amaldorlari orqali pora

18 Douglas, Z., *The Plea of Illegality in Investment Treaty Arbitration*, ICSID Review, Vol. 29(1), 2014, p. 155.

talab qilgan hukumatlar oxir-oqibat investorning da'vosini to'xtatish orqali naf ko'rishga olib keladi.

Tahlillardan kelib chiqib quyidagicha to'xtamlarga kelish mumkin:

Yangi xalqaro shartnomalar (BITs va MITs) ni ishlab chiqishda nafaqat "qonunga muvofiq kiritilgan investitsiya" jumlasini, balki, "investorni himoya qilish uning faoliyati davomidagi doimiy qonuniy xatti-harakatiga bog'liq bo'ladi, aks holda bu admissibility predmeti bo'ladi" qabilidagi maxsus bandlarni qo'shish lozim.

Arbitraj tribunallari korrupsiya yoxud firibgarlik holatlarini baholaganda davlat amaldorlarining roliga jiddiy e'tibor qaratishi va estoppel hamda xarajatlarni taqsimlash (costs allocation) mexanizmlari yordamida javobgar davlatlarning mas'uliyatsizligini jazolashi kerak.

ICSID doirasida (yoki UNCITRAL komissiyalari tomonidan) investitsiya sarmoyasini kiritish va post-establishment (keyingi davr) jarayonida sodir bo'lgan huquqbuzarliklarni huquqiy baholash bo'yicha yagona izoh yoxud ko'rsatmalar (guidelines) to'plamini yaratish xalqaro investitsiya arbitrajari uchun ko'ratmalar vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Fraport AG Frankfurt Airport Services Worldwide v. Republic of the Philippines, ICSID Case No. ARB/03/25, Award, 16 August 2007.
2. Inceysa Vallisoletana S.L. v. Republic of El Salvador, ICSID Case No. ARB/03/26, Award, 2 August 2006.
3. Metal-Tech Ltd. v. Republic of Uzbekistan, ICSID Case No. ARB/10/3, Award, 4 October 2013.
4. World Duty Free Company Limited v. Republic of Kenya, ICSID Case No. Arb/00/7, Award, 4 October 2006.
5. Cheng, Bin. General Principles of Law as Applied by International Courts and Tribunals. Cambridge: Cambridge University Press, 1953.
6. Douglas, Zachary. The International Law of Investment Claims. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
7. Llamzon, Aloysius P. Corruption in International Investment Arbitration. Oxford: Oxford University Press, 2014.
8. McLachlan, Campbell, Laurence Shore, and Matthew Weiniger. International Investment Arbitration: Substantive Principles. Oxford: Oxford University Press, 2017.
9. Muchlinski, Peter, Federico Ortino, and Christoph Schreuer. The Oxford Handbook of International Investment Law. Oxford: Oxford University Press, 2008.
10. Newcombe, Andrew, and Lluís Paradell. Law and Practice of Investment Treaties: Standards of Treatment. The Hague: Kluwer Law International, 2009.
11. Schreuer, Christoph H. The ICSID Convention: A Commentary. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
12. Cambridge University Press, 2009.
13. Bismuth, Régis. "Anatomy of the Law and Practice of Interim Measures in International Investment Arbitration." *Journal of International Arbitration*, Vol. 26, No. 6 (2009): 770–785.
14. Douglas, Zachary. "The Plea of Illegality in Investment Treaty Arbitration." *ICSID Review - Foreign Investment Law Journal*, Vol. 29, No. 1 (2014): 155–186.

15. Dumberry, Patrick. "State of Confusion: The Doctrine of 'Clean Hands' in Investment Arbitration After the Yukos Award." *The Journal of World Investment & Trade*, Vol. 17, No. 2 (2016): 229–259.
16. Heiskanen, Veijo. "Unreasonable Expectations: The Decline of the 'Clean Hands' Doctrine." *ICSID Review*, Vol. 29, No. 1 (2014): 130–150.
17. Hunter, Martin, and Gui Silva. "Transnational Public Policy and its Application in Investment Arbitration." *The Journal of World Investment*, Vol. 4, No. 3 (2003): 367–378.
18. Knull III, William H., and Noah D. Rubins. "Betting the Farm on International Arbitration: Is it Time to Offer an Appeal Option?." *American Review of International Arbitration*, Vol. 11 (2000): 531–570.
19. Kreindler, Richard. "Corruption in International Investment Arbitration: Jurisdiction and the Unclean Hands Doctrine." *Journal of International Arbitration*, Vol. 30, No. 3 (2013): 309–332.
20. Lalive, Pierre. "Transnational (or Truly International) Public Policy and International Arbitration." *Comparative Law Yearbook*, Vol. 3 (1986): 257–318.
21. Paulsson, Jan. "Jurisdiction and Admissibility." *Global Reflections on International Law, Commerce and Dispute Resolution*, ICC Publishing, (2005): 601–617.
22. Raouf, Mohamed A. "How Should International Arbitrators Tackle Corruption Issues?." *ICSID Review*, Vol. 24, No. 1 (2009): 116–136.
23. Veeder, V. V. "The Distinction Between Jurisdiction and Admissibility in International Arbitration." *Arbitration International*, Vol. 34, No. 3 (2018): 331–342.
24. Viñuales, Jorge E. "Investor Diligence in Investment Arbitration: Sources and Arguments." *ICSID Review*, Vol. 32, No. 2 (2017): 346–370.
25. Wilske, Stephan, and Martin Raible. "The Distinction Between Jurisdiction and Admissibility in Investment Arbitration." *Kluwer Arbitration Blog*, 2019.
26. ICSID Convention, Regulations and Rules (International Centre for Settlement of Investment Disputes). Washington, D.C., 2006.
27. Vena Konvensiyasi (The Vienna Convention on the Law of Treaties). Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 1969.